

**BOLALAR BOG`CHASIDA VA BOSHLANG`ICH SINFLARDA  
MATEMATIKA FANI O`RGATILISHI ORASIDAGI UZVIYLIK.  
MATEMATIKA YOZUV DAFTARI BILAN ISHLASH**

***Karimova Navbaxar Mahmudjanovna***

*Urganch davlat universitetida sirtqi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi hamda Gurlan tumanidagi 9-sonli ko'p tarmoqli Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi*

**Annotatsiya:** matematika ta'limining uzviyligi bolalarning mavzularni bosqichma-bosqich o'zlashtirishiga, bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, matematika yozuv daftaridan samarali foydalanish bolalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Daftar bilan ishlash orqali o'quvchilar matematik tushunchalarni yozma ravishda ifodalashni o'rganadi va amaliy mashqlarni bajarishda tizimli yondashuvni shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** bolalar bog'chasi, boshlang'ich sinflar, matematika fani, uzviylik, matematika yozuv daftari, mustaqil ishlash, ta'lim jarayoni, matematik ko'nikmalar.

**Аннотация:** Непрерывность обучения математике способствует поэтапному усвоению тем детьми и укреплению знаний. Кроме того, эффективное использование математических тетрадей имеет важное значение для развития навыков самостоятельной работы у детей. Работая с тетрадями, учащиеся учатся выражать математические понятия в письменной форме и формируют системный подход к выполнению практических заданий.

**Ключевые слова:** детский сад, начальные классы, учебный предмет математика, непрерывность, математическая тетрадь, самостоятельная работа, образовательный процесс, математические навыки.

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

---

**Abstract:** The continuity of mathematics education enables children to master topics gradually and reinforces knowledge. Additionally, effective use of mathematics notebooks is crucial for developing children's independent working skills. By working with notebooks, students learn to express mathematical concepts in writing and develop a systematic approach to solving practical exercises.

**Key words:** kindergarten, primary grades, mathematics, continuity, mathematics notebook, independent work, educational process, mathematical skills.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish vazifalari va bolalar bog'chasida arifmetika asoslarini tarkib toptirish, miqdor, makon va zamonga oid tasavvurlarini rivojlantirish o'qitishning asosiy shartidir Har bir mashg'ulotda tarbiyachi mavzu mazmunining asosiy masalalari va uni darsda ishslash metodikasini ochib beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, berilayotgan tavsiyalar odatda bolalarga berilishi kerak bo'lgan topshiriqlar, mashqlar, savollarning tipik namunalaridir. Uzviylik masalasini hal qilish uchun bolalar bog'chasida ham, boshlang'ich sinflarda ham o'qitishning turli usullari joriy etildi. Ushbu usullarga integratsiyalashgan tematik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar, hamkorlikda o'qitish va muammolarni hal qilishning haqiqiy strategiyalarini kiritish kiradi. Tayyorlov guruhlarda matematikani o'rgatish metodikasi bolalar bog'chasing tayyorlov guruhi bir haftada ikkita, bir yilda 72-74 mashg'ulot o'tkazish rejalashtiriladi. Mashg'ulotlar sentabrdan may oyining oxirigacha har biri 25-30 minutdan o'tkaziladi. Mashg'ulotlarda didaktik o'yinlar, ko'rgazmali materiallardan keng foydalilanadi. Bolalar mashg'ulotlarga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim:

1. Dastur materiallarini yaxshi o 'zlashtirib olishi.
2. Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlash.
3. Bolalar faoliyatini o'zgartirib turishga va ularning qiziqishlariga e'tibor qilish.
4. Mashg'ulot o'rtasida harakatlari o'yinlar o 'tkazishni rejalashtirish.
5. Mashg'ulot davomida bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlariga

erishish.

### **6. Bolalarning xilma-xil javoblarini rag‘batlantirish.**

Bolalarni raqamlarni yozishga o‘rgatilmaydi, faqat bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Bolalar har bir raqam qaysi sonning belgisi ekanligini ajrata bilishlari lozim. Hammasi bo‘lib 10 ta raqam bor:

0. 1 .2 .3.4.5.6.7.8.9. 10 raqami yo‘q. 10 soni ikkita raqam: 1 va 0 bilan belgilanadi. Bitta mashg‘ulotda bitta yoki ikkita raqam bilan tanishtirish mumkin. Masalan “ 1” raqami bilan tanishtirishda tarbiyachi sanoq kartochkasiga bitta o‘yinchoq qo‘yadi, ularning oldiga 1 ta doirali kartochkani qo‘yadi. 2 ta bolani chaqirib, biriga bir marta sakrash, ikkinchisiga bir marta stolga taqqillatishni taklif etadi. Bolalar sanab, hammasi bittadan degan xulosa qiladilar. Keyin “ 1” raqamini ko‘rsatib bu sonni ko‘rsatuvchi shartli belgidir, har bir son o‘z belgisiga egadir deb tushuntiradi. Bolalar bog‘chasi bilan boshlang‘ich sinf orasida uzviylik shundan iboratki bular bir-birini to‘ldirib boradi. Bolalar ustma-ust, tagma-tag terib qo‘yish, sanash orqali to‘plamlar ning teng, notengligini aniqlaydilar. Tenglik-notenglik munosabatlarini aniqlashda ishora belgilari simvollaridan foydalaniladi. Qaysi qatorda ko‘proq, qaysi qatorda kamroq? 5 soni 6 dan kamroq  $5 < 6$ , tengsizlikdan tenglik hosil qilish uchun nima qilish kerak, deb so‘raladi. Dastur materialini mashg‘ulotlarga taqsimlashda bolalarning bilim va ko‘nikmalariga, ularning tayyorgarligiga e ’tibor berish lozim. Maxsus atamalarni to‘g‘ri qo’llay bilish katta ahamiyatga ega. Masalan, son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak. «Qaysi son katta, qaysinisi kichik” deb so‘raladi (qaysi raqam .katta deyish mumkin emas). Mashg‘ulotda hamma bolalarning faol ishtirok etishlariga erishish maqsadida har bir bolaning oldida tarqatma materiallar bilan bir qatorda ko‘rgazmalar bo‘lishi tavsiya etiladi. 0 dan 9 gacha raqamlar bilan tanishtirish. Raqam - sonning shartli belgisidir. Bolalarga sonni tushuntirishda raqam qo‘sishicha, yordamchi bosqichdir.

Matematika ta’limini samarali tashkil etishdan maqsad bolalarning matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bolalar bog‘chasidan boshlang‘ich sinflarga o‘tish jarayonida uzviylik ta’milanishi juda muhim. Bu jarayon

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

bolalarning bilish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, matematik tushunchalarni yanada chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Matematika yozuv daftari bolalarga matematik tushunchalarni yozma ravishda ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu daftardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilar mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Daftarda bajargan ishlar ularning matematik yechimlarni aniq ifoda etishlariga yordam beradi, bu esa amaliy mashqlarni bajarishda tizimli yondashuvni shakllantiradi. Umuman olganda, bolalar bog‘chasida va boshlang‘ich sinflarda matematika fani o‘rganish jarayonida uzviylikni ta’minlash, o‘quvchilarning mustaqillik, tafakkur va asosiy matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Matematika yozuv daftari esa bu jarayonda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday yondashuvlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich sinf ta’limi o‘rtasidagi uzviylik ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishida muhim rol o‘ynaydi. Har ikki bosqichda bolalarning rivojlanishi va o‘rganish jarayonlari o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Bolalar bog‘chasi dasturida bola o‘zini yaqindan o‘rganishda asosiy element bo‘ladi. Bu davrda o‘yinlar, interaktiv faoliyatlar orqali matematika asoslari, raqamlar, shakllar va o‘lchovlar haqida bilimlar beriladi. Shuningdek, bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinfda matematika faniga chuqur e’tibor beriladi. Bu bosqichda o‘quvchilar matematika nazariyasini va amaliyotini mustahkamlashga, masalalarni yechishga va matematik tushunchalarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadilar. O‘qituvchilar dastlabki ko‘nikmalarni ta’minlagan holda, o‘quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishga harakat qiladilar. Yozuv daftari matematika darslarida muhim resurs hisoblanadi. O‘quvchilar unda matematik jihatlar, misollar, reja va natijalarni yozadilar, bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. Matematika yozuv daftari orqali bolalar o‘zlarini ifodalashga, qarorlar qabul qilishga va o‘z ishlarini nazorat qilishga o‘rganadilar. Bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich sinf ta’lim jarayonida uzviylikni ta’minlash, bolalarning o‘rganish motivatsiyasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashda muhim

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ahamiyatga ega. O‘yin va amaliy ishlardan foydalangan holda, bolalarni matematik fikrlashga tayyorlash muvaffaqiyatli ta’lim jarayonini ta’minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR**

1. Ahmedov M., Ibragimov P., Abdurahmonova N., Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligida medodik qo‘llanma. T.: “Uzinkomsentr”, 2003.
2. Bikboyeva N.U va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi (Pedagogika bilim yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). T.: “O‘qituvchi”, 1996.
3. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. T.: “O‘qituvchi”, 2004.